

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

UDK 677.37.02:677.072.6



“IPAK VA YIGIRISH TEXNOLOGIYASI” kafedrası

“Yengil sanoat buyumlarini konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi” ta’lim
yo’nalishi

Bakalavrlarni tayyorlashda diplom loyiha ishini bajarish uchun

Eshish korxonalarini loyihalash bo'yicha

U S L U B I Y Q O ' L L A N M A

Toshkent - 2016

Uslubiy qo'llanma "Yengil sanoat buyumlarini konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlashda « Eshish korxonasini loyihalash» bo'yicha diplom loyihasini (DL) talabalar tomonidan bajarishda foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lib, unda ipakchilik sanoatini bozor iqtisodiyoti davridagi vazifalari, rivojlanish masalalari, tanlangan mavzu asosida qilingan ilmiy ishlarni tahlil qilish tartibi, loyihalanayotgan korxonaning texnologik jarayonlar ketma-ketligi, dastgohlar turi, hamda xom-ashyodan mahsulot chiqishi, mehnat va atrof muhitni muhofazasi, iqtisodiy-ijtimoiy hisoblash ishlari va kerakli adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Tuzuvchilar: t.f.n., dots. N.M. Islambekova
Ass. A.P. Eshmirzayev
Katta o'qt. U.N. Azamatov

Taqrizchilar: t.f.n., dotsent, B.X. Baymuradov
D.Xabibullayev

Uslubiy qo'llanma institut ilmiy-uslubiy kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Bayonnoma № _____

M U N D A R I J A

KIRISH.....	4
I. UMUMIY USLUBIY KO'RSATMALAR.....	5
II. DIPLOM LOYIHA ISHINI MAZMUNI.....	6
2.1. <i>Korxona qurilish joyini tanlash va asoslash.....</i>	6
2.2. <i>Mahsulot va xom ashyo turini tanlash.....</i>	6
2.3. <i>Texnologik dastgohlarni tanlash va asoslash.....</i>	8
2.4. <i>Eshish rejasini ishlab chiqish.....</i>	9
2.5. <i>Xom ashyoni saqlash va ombor hisobi.....</i>	12
2.6. <i>Xom ashyoni qabul qilish va guruhlarga yig'ish.....</i>	13
2.7. <i>Xom ipakni qayta o'rashga tayyorlash, xom ipakni ivitish.....</i>	13
2.8. <i>Xom ipakni qayta o'rash.....</i>	14
2.9. <i>Xom ipakni qo'shib eshish.....</i>	14
2.10. <i>Eshishni mustahkamlash.....</i>	15
2.11. <i>Eshilgan iplarni qayta o'rash.....</i>	15
2.12. <i>Texnologik jarayonlar uchun parametrlar normativlarni asoslash....</i>	16
2.13. <i>Dastgohlarning meyorlash kartasi.....</i>	19
2.14. <i>Ishlab chiqarish dasturi.....</i>	24
2.15. <i>Eshilgan ipning sifatiga baho berish.....</i>	24
2.16. <i>O'timlar orasidagi ipakni saqlash uchun ombor hisobi.....</i>	25
2.17. <i>Kerakli g'altaklar hisobi.....</i>	26
2.18. <i>Tayyor mahsulot omborining hisobi.....</i>	27
III Ilmiy-tadqiqot qismi(Maxsus qism).....	28
IV Mehnat va atrof muhit muhofazasi.....	28
V Iqtisodiy - ijtimoiy qism.....	28
Diplom loyihasini rasmiylashtirish tartibi.....	29
Ma'lumotlar.....	30
Foydalanilgan adabiyotlar.....	37
Tayanch iboralar	38

KIRISH

Mustaqil Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarini quvvati va xususiytashtirish shakllari o'zgartirildi. Avval katta-katta davlat korxonalari quriladigan bo'lsa, ularni markazlashgan holda xom ashyoga yaqin dastgoh va boshqa yordamchi materiallar bilan ta'minlangan.

Hozirgi paytda asosiy kuch o'rta va kichik korxonalarni xom ashyoga yaqin bo'lgan Respublika tumanlarida qurish mo'ljallangan. Bu o'rinda iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni yechishga, ya'ni xom ashyoni tashishga ketadigan transport harajatlarini kamaytirish va qishloq aholisini ish bilan ta'minlashga qaratilmoqda.

O'zbekistonning asosiy boyliklaridan biri, bu tabiiy ipakdir. To'qimachilik sanoatida ipakchilik taromg'i yuqori o'rinni egallaydi, ayniqsa tabiiy ipakdan tayyorlangan gazlamalar hamma vaqt nafis, chidamli, yengil va gigiyenik xususiyatlari yuqori bo'lib, inson tanasini salomatligini ta'minlaydi.

O'zbekistonda ipak ishlab chiqarishni rivojlantirish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish va jahon tajribalaridan foydalanish jahon talablariga javob beradigan yuqori sifatli ipak mahsulotlari turlarini kengaytirish asosida amalga oshirish kerak.

O'zbekistondagi aholi tarkibini va sanoat sohaslarini turli talablarini hisobga olgan holda, ipakchilik sohasini asosiy iqtisodiy masalalari quyidagilardan iborat:

1. O'rta Osiyo regionini iqlimi sharoiti va sanitariya-gigiyena talablarini hisobgan olib, bolalar va ayollar uchun kiyimlar, ro'mol, ichki kiyim, paypoq mahsulotlari;
2. Xalq xo'jaligining turli sohalari umum jarrohlik, tikuv va izolyatsiya iplarini ishlab chiqarish;
3. Chiqarilgan mahsulotning, ayniqsa, tabiiy ipak va ipak gazlamalari sifatini yaxshilash.

Diplom loyihasi -talabaning bitiruv bosqich ishi bo'lib, loyihada talaba ipak korxonalaridagi texnika-texnologiya, tashkiliy-iqtisodiy va ilm-fan rivojlanishini mustaqil ravishda hal etadi.

Diplom loyihani muvaffaqiyatli bajarish uchun, uning mavzusi hozirgi zamon talablariga javob berib, kafedra tomonidan tasdiqlanadi va shu asosda yo'l yo'riq ko'rsatiladi.

Loyihada hozirgi zamon va kelajakka bog'liq har bir nazariy va amaliy masalalar kerakli dalillar bilan asoslanmog'i lozim. Qabul qilingan barcha ma'lumotlar va ularning to'g'ri aks etilishi, loyihaning mazmuni va sifati uchun talaba o'zi javob beradi. Buning uchun har bir talaba etarli tayorgarlik ko'rishi kerak. Ilmiy axborotlarni chuqur o'rganishi va foydalanishi; shu jumladan O'zbekistonda pillachilik va ipakchilik, jahon ipak bozori, hozirgi davrda ipak korxonalari faoliyati va vazifasi, rivojlanish masalalari va muammolarini bilishi talab etiladi.

UMUMIY USLUBIY KO'RSATMALAR

Diplom loyiha ishining asosiy vazifasi va unga qo'yilgan talablar

Diplom loyiha ishining asosiy vazifasi- loyihada texnika-texnologiyani rivojlanishi, ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatlarini mukammallashtirish yo'llari va usullarini aniq ko'rsatishdir. Buning uchun loyihani mavzusi va mazmunini yaxshilash uchun manb'alar va imkoniyatlardan to'la foydalanish kerak. Ayniqsa, korxonani hukumat qarorlariga asosan joylashtirib, samarali texnika siyosatini tanlab, ishlab chiqarish va boshqarishni yangi shakllarini qo'llash yuqori samara beradi.

Diplom loyiha ishiga qo'yiladigan talablar:

a) Diplom loyiha ishida Respublika hukumatini qarorlari asosida ipakchilikda aniq materiallar bo'yicha, samarali muammolarni hal etishi kerak;

b) loyihada qabul qilingan me'yorlar va ko'rsatkichlar, texnikaviy va iqtisodiy asoslangan bo'lib, tajribada qo'llanishi va tasdiqlanishi lozim.

v) loyihaning izohnomasi (tushuntirish qismi) qisqa va aniq bo'lib, qabul qilingan tavsif ko'rsatkichlari, texnologiya rejimlari jadvallarda keltiriladi. Izohnomada foydalangan adabiyotlar ko'rsatilib, oxirida uning ro'yxati keltiriladi. Loyihani chizmalar qismi, ishning hajmi va mavzusiga qarab, davlat standarti bo'yicha chiziladi.

Talabaning vazifalari

Loyihani bajarishda talaba quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

- hozirgi zamonda ipak korxonalaridagi barcha jarayonlarni o'rganib, unda qo'llaniladigan texnika, texnologiya, xom ashyo, texnologik rejimlar, me'yorlar va boshqa ko'rsatkichlarni mustaqil tahlil etish;
- ilg'or tajribalar va korxonalar ma'lumotlaridan foydalanib, biznes rejasining barcha qismlarini, foyda va uning qonun asoslarida taqsimlanishini hisoblash;
- loyihada ko'rsatilgan yangi texnika, texnologiya, foydalangan ilg'or tajribalarning iqtisodiy samarasini hisoblab, natijalarini ko'rsatish;
- loyihani reja bo'yicha o'z vaqtida yuqori darajada bajarib, ijobiy natijalar bilan yoqlash asosiy vazifa hisoblanadi.

Loyiha rahbarining vazifasi

Loyiha mavzusi bo'yicha topshiriqni talabaga berib, asosiy maqsad va mazmunini tushuntiradi:

- loyihani mazmuni va uning asosiy qismlarini talaba bilan birgalikda aniqlaydi;
- talabaga loyihani bajarish uchun reja tuzishga yordam beradi;
- talabaga kerakli adabiyotlar, ilmiy axborotlar manb'alarini ko'rsatib, foydalanish usullarini o'rgatadi;

- talaba bilan jadval bo'yicha uchrashuvlar o'tkazib, maslahatlar beradi va reja bo'yicha loyiha bajarilishini nazorat etadi.

DIPLOM LOYIHA ISHINI MAZMUNI

2.1. Korxona qurilish joyini tanlash va asoslash

Loyihalanayotgan korxonani qurilish joyini tanlashda Respublikada ipakchilik va ipak sanoatini mavqei, ahamiyati va xalq xo'jaligida tutgan o'rni, uni rivojlantirishdagi Davlat qarorlari, hamda ularni bajarilishini inobatga olinadi.

Xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tishi asosida chet ellardan yangi texnika va texnologiyalarni olib kelish, davlatimizni ipak sanoatini rivojlantirish, yangi xaridorgir ipak mahsulotlarni ishlab chiqarishini kengaytirish, xom-ashyo manb'asini etarli darajada ko'paytirish masalalari katta ahamiyatga egadir. Qurilish joyini tanlashda quyidagilarni inobatga olish kerak:

- ishlab chiqarishni xom-ashyo manb'aga va iste'molchilarga yaqinlashtirish;
- mahalliy qurilish materiallari, aloqa, transport, yoqilg'i, elektr energiyasi, suv bilan ta'minlanganligi;
- ishchi kuchi mavjudligi, mutaxassis kadrlar tayyorlash formalari;
- loyihalanayotgan korxonani quvvati va turini mahalliy sharoitga javob berishi.

Loyihada mo'ljallanayotgan tuman yoki shaharni kelajakda rivojlanish omillari, aholisini soni, xom-ashyo etishtirish hajmi, tabiiy geografik sharoiti, zilzilaga - bardoshligi ko'rsatiladi. Agarda tanlangan qurilish joyida turdosh korxonalar bo'lsa, yangi korxonani ular bilan bog'lanishi va tanlangan joyni kelajak rivojiga ta'sir ko'rsatiladi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, tanlanayotgan joy ko'proq tuman markazlari bo'lsa, u yerda erkin ishchi kuchi xom-ashyo manb'asi bo'lib, bu yerni kelajakda rivojlanishga, xalqni sharoitini yuksaltirishga sabab bo'lishi kerak.

2.2. Mahsulot va xom ashyo turini tanlash

Qadimdan O'zbekistonda O'rta Osiyo regionini iqlim sharoitiga va gigiyenik talablariga javob beradigan bolalar va ayollar uchun ko'ylaklar tabiiy ipakdan ishlab chiqariladi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida bozor talabiga muvofiq keladigan mahsulotlar ishlab chiqarish zarur. Ipak xom ashyosidan va kimyoviy ipdan tayyorlangan eshilgan, pishitilgan iplarning turlari, assortimentlari har xil bo'ladi. Ipak eshish, pishitish mahsulotlarining asosiy turlari quyidagilar: arqoq, tanda, grenadin, muslin, krep-yupqa mato, moskrep, krep-granit, fasonli-andozali eshilgan iplar, tikuv ipi, jarrohlik va texnik iplar, izolyatsion iplar, teksturlangan iplar, turli xil bog'ich-chizimli iplar.

Bir so'z bilan aytganda bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda yangi assortiment iste'mol mollarini yaratishda eshilgan iplarning turlarini ko'paytirish muhim ahamiyatga egadir.

Ipak eshish korxonalarida foydalaniladigan xom ashyoning asosiy turlaridan, uzluksiz kimyoviy (viskoza, atsetat, kapron, lavsan va shu kabi) iplar, tabiiy ipak, kimyoviy toladan yigirib olingan ip, shuningdek, metall iplar va hokazolar.

Ipak eshish fabrikalarida sifatiga va miqdoriga asosan qabul qilib olinadigan xom ashyo davlat standartiga yoki tasdiqlangan texnikaviy shartga mos holda o'tkaziladi..

Xom ashyo yetkazib beruvchi - korxonalar bilan qilinadigan hisob-kitob konditsion massa miqdori bo'yicha o'tkaziladi.

Xom ashyo ipak eshish fabrikalariga kichik to'plarda ipak-xom ashyo - 1-2 toy, kimyoviy iplar - bir nechta yashikda kelib tushishi mumkin. Bunday mayda to'plarni qayta ishlashga tushirish maqsadga muvofiq emas, chunki xom ashyo to'pining qaysisini alohida-alohida tayyorlashda, mashinalarni qayta-qayta zapravka qilishda ularning bekor turib qolish holati ko'payadi. Xom ashyoni qayta ishlash muddatini uzaytirish, mashinani qayta-qayta zapravka qilmaslik, texnologik tartibni (rejimni) o'zgartiravermaslik uchun xom ashyoning mayda to'plarini birlashtirib yirikroq to'plar hosil qilinadi.

Ipak-xom ashyoning bir necha toyini birlashtirib bitta qayta to'p qilish uchun quyidagi shartlarga amal qilinadi: ipak-xom ashyo bir xil bo'lishi, bir xil chiziqli zichlikka ega bo'lishi, bir korxonadan (mahsulot bilan ta'minlovchi korxonadan) keltirilgan bo'lishi, navi bir xil yoki bir-biriga yaqin (I va II, II va III) bo'lishi, fizik-mexanik xususiyatlarining ko'rsatkichlari bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lishi kerak. Birinchi navli ipak-xom ashyoni birmuncha nozik (masalan, maxsus eshilgan iplardan va hokazolardan tayyorlangan krep) buyumlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan to'plarda ishlatiladi.

Xom ashyoning bir to'pidagi kimyoviy iplarning turi (viskoza, atsetat, sintetika va hokazo)ga, eshilgan iplar ishlab chiqarish uchun, quyidagi xom ashyolar qo'shiladi:

1) bir xil miqdordagi elementar iplar qo'shilgan bir xil chiziqli zichlikka va bir xil oddiy eshilishga ega bo'lgan iplar;

2) bir turdagi o'ramda bo'lgan bobinalar, g'altaklar, kopsalar yoki kulichlar;

3) fizik-mexanik xususiyat ko'rsatkichlari jihatidan bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan;

4) bir xil navli bo'lgan;

5) rang-tusi va bezagi ya'ni, yaltiroqligi yoki xira oq shisha tusida bo'lganligi; sulfidlanganlik yoki sulfidlanmaganligi, oqartirilganligi, bo'yalgan yoki bo'lmaganligi bir xil bo'lgan;

6) bir korxonadan (mahsulot yetkazib beruvchi korxonadan) birlgan xom ashyolar qo'shiladi.

Loyihalana yotgan korxona uchun xom ipak va eshilgan ipak mahsulotlarini sifatini quyidagicha qabul qilish mumkin.

Ipak mahsulotlari	Navi, %		
	I	II	III
Xom ipak	60	30	10
Eshilgan tanda va arqoq iplari	90	10	-

2.3. Texnologik dastgohlarni tanlash va asoslash

Ipak xom ashyosini va kimyoviy iplarni eshish, pishitish texnologiyasi bir nechta bosqichlarga bo'linadi, ularning har qaysisida turli apparat va mashinalarda turlicha konstruksiya bo'yicha va turli maqsadlarga mo'ljallangan bir qancha texnologik jarayonlar bajariladi (2- jadval).

2- jadval

Ipak eshishdagi texnologik jarayon va jihozlarning asosiy bosqichlari

Bosqich	Texnologik jarayon	Dastgohlar
1. Xom ipak iplarni qayta o'rashga tayyorlash	Xom ashyoni saralash va partiyalarga yig'ish. Ipak xom ashyoni ivitish, suvini siqish. Ipak xom ashyoni ohista titib tolasini bir biridan ajratish. Quritish.	Qora ekranlar, saralash stollari, kalavani osish uchun yog'och ilgichlar.
2. Iplarni qayta o'rash va ularni eshishga tayyorlash	Kalava, kulich va bobinadagi g'altakka qayta o'rash. Bir necha ipni eshmasdan yoki eshib birlashtirish, qo'shish.	Qayta o'rash mashinalari, dastgohlari. Qo'shish va qo'shib eshish mashinalari.
3. Eshish, pishitish.	Eshish, pishitish.	Ip eshish, pishitish mashinalari.
4. Eshishni mustahkamlash.	Bug'lash yoki xo'llash	Bug'lash mashinalari
5. Qayta o'rash	Qayta o'rash	O'rash, qayta o'rash va bobinaj mashinalari
6. Nazorat va saralash	Saralash, yig'ish, upakovka qilish (joylash), markalash (belgi qo'yish)	Kuftolash (kalavalarni burash) dastgohlar, saralash stollari.

Eshilgan ipak ishlab chiqarish korxonalarida asosan mexanik jarayonlar amalga oshiriladi, binobarin, bunda ayrim jarayonlar iplarga turli emulsiyalar, harorat va namlik ta'sir ettirish yo'li bilan olib boriladigan kimyoviy ishlov berish bilan monand holda, birga bajariladi.

Texnologik dastgohlarni tanlashda quyidagilarni nazarda tutish kerak:

- a) dastgoh unumi va sifatli mahsulot ishlab chiqarish;
- b) iloji boricha katta hajmli pokovkada mahsulot ishlab chiqarish va mehnatni boshqarish qulay bo'lishi;
- v) dastgohning arzon va kam muddatda harajatlari oqlashi.

Hozirgi vaqtda ipak eshish korxonalarida yangi dastgohlardan foydalanilmoqda. Bu dastgohlar Xitoyda ishlab chiqarilgan bo'lib ularning ish unumdorligi yuqori, chiquvchi pakovka og'irligi 660g.

Eski va yangi zanjir mashinalaridagi texnologik jarayonlar ketma ketligi quyidagi jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Texnologik jarayonlar	Ipni eshish uchun dastgohlar	
	Eski zanjir	Yangi zanjir
Qayta o'rash	M-170-SHL	GDOD1A-145
Qo'shib eshish	TK-136-SHN	GD-122
Eshish	KE-145-SHL	GD-143-120
Eshishni mustahkamlash	KTR-4	MD-471
Qayta o'rash	BP-240-SHL	KO-51

Yuqoridagi javdalda keltirilgan yangi dastgohlarni ish unumi bir oz yuqori va ishlab chiqariladigan mahsulotni sifati ham yuqori, chunki dastgohlar qo'shimcha nazorat moslamalari bilan jihozlangan.

2.4. Eshish rejasini ishlab chiqish

Eshilish plani deb texnologik jarayonni xarakterlovchi parametrlar ro'yhati, iplarning qatlami, chiziqiy zichligi, eshishning miqdori yo'nalishi, mashina tezligi va hakoza.

Eshish korxonalarida ip eshish plani texnologik kartalar tuzishda asos hisoblanadi, bunga eshilgan mahsulot ishlab chiqarishning hamma texnologik parametrlari va tartiblari kiradi.

Eshilish va texnologik rejalar ipning har bir turi uchun alohida ishlab beradi. Buning asosida – kam chiqim, harajat bilan yuqori sifatli standartga mos keladigan iplar olinishining, eshish rejasi ishlab chiqiladi va yuqori texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlar qo'lga kiritiladi, jumladan, ish unumdorligiga va past mahsulot tannarxiga ega bo'linadi.

Shunday qilib eshish rejasi – ip eshish ishlab chiqarishi faoliyatining texnik iqtisodiy natijasini aniqlovchi asosiy texnologik hujjat hisoblanadi.

Eshilish rejalar va texnologik kartalarni yuqori unumdorlik beradigan jihozlarni ishlatish paytida o'tish miqdorini texnologik jarayonda ketma-ketlik dastgohlarini maksimal darajada qisqarishini va qator jarayonlarni, masalan, qo'yish va eshishni, sintetik iplarni cho'zish va teksturlashni va hokazolarni birlashtirishni hisobga olgan holda tuzish kerak. Bunda katta miqdorli o'ramlarni

ishlatishni mo'ljallash lozim, shunda, o'ramni teshishda jihozlar ishida tanaffus qisqaradi.

Harakatdagi korxonalarda eshish rejasi jihozlar miqdorini, o'tish bo'yicha mashinalar tutashligini hisobga olib tuziladi. Shuning uchun ayrim korxonalarida eshilgan mahsulotlar ishlab chiqarishning texnologik kartasi hozirgi zamon texnologiyasi va eshish texnikasi nuqtai nazaridan optimal hisoblanmaydi. Yangi qurilish loyihasini ishlash paytida yoki mavjud korxonalarni rekonstruksiya qilishda-progressiv texnika va texnologiyaga asoslangan ip eshishning ratsional rejalaridan foydalanishi kerak.

Ip eshish rejaları va texnologik kartalar eshilgan mahsulotlar ishlab chiqarishning reglamentlangan texnologik rejimi tartibi hisoblanadi. Bu rejimlar vaqti-vaqti bilan assortimentda, texnikada, texnologiyada yuz bergan o'zgarishlarni hisobga olib qayta qarab chiqiladi.

Eshish rejimlari eshilgan mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi tavsifini kiritadi, shuningdek, jihozlarga qarash qoidalarini (nazorat, ayrim uzellar holatini, mashinalarini tozalash va yog'lashni) kiritadi, korxona ichidagi harorat namlik sharoitini, texnologik parametrlar va rejimlar ustidan laboratoriya va ishlab chiqarish nazorati o'rnatishni kiritadi.

Quyidagi jadvallarda turli assortimentdagi eshilgan iplar uchun eshish rejasi misol keltiriladi.

1-misol. 2,33t x 2 Xom ipakdan pombarxt matosi uchun tanda va arqoq ipini ishlab chiqarishda eshish rejasi

4-jadval

№	Operatsiyalar ketma-ketligi	Dastgohlar nomi	Texnologik parametrlar
1	Saralash va guruhlariga yig'ish	Qo'lda	
2	Ivitish	Vannada	T=42-45°C t=21 soat
3	Siqish	Sentrafuga	t=3,5 minut
4	Titish	Qo'lda	
5	Quritish dam berish	Yashiklarda	T=22-24°C W=60-65% t=4 soat
6	Qayta o'rash	GDOO1A-145	V=180 m/min
7	Qo'shib eshish	GD-122	K=100 br/m n _u =6000 min ⁻¹ V= 60 m/min
8	Eshish	GD-143-120	K=2400 br/m n _u =126000 min ⁻¹ V=5,25 m/min

9	Eshishni mustahkamlash (fiksatsiyalash)	MD-471	T= 80°C t=90 min
10	Dam berish	Xonada	W=95±2 t= 7 kun
11	Qayta oʻrash	KO-51	V= 100 m/min
12	Nazorat va saralash	Davlat Standarti boʻyicha	
13	Joylash va tamgʻalash	Davlat Standarti boʻyicha	

**2-misol. 3,23 t x 2 xom ipakdan xon atlas uchun tanda ipi ishlab
chiqarish eshish rejasi**

5-jadval

№	Texnik jarayonlar	Dastgoh markasi	Texnik parametrlar
1	Saralash va guruhlarga yigʻish	Qoʻlda	
2	Purkash usulida ivitish	Stolda	T=45-55°C
3	Dam berish	Yashiklarda	T=22-24°C W=60-65% t=4 soat
4	Qayta oʻrash	GDOO1A-145	v=180-200 m/min
5	Qushib eshish	GD-122	k=100 br/m v=60-70 m/min n _u =6000-7000 min ⁻¹
6	Eshish	GD-143-120	k=350 br/m v=31,5 m/min n _u =11000 min ⁻¹
7	Buramlarni muvozanatlash	MD-471	T=60-65°C t=40 min
8	Qayta oʻrash	KO-51	v=350-400 m/min
9	Nazorat va saralash	Davlat Standarti boʻyicha	
10	Joylash va tamgʻalash	Davlat Standarti boʻyicha	

**3-misol. 3,23 t x 4 xom ipakdan atlas matosi uchun arqoq ipi ishlab
chiqarishda eshish rejasi**

6-jadval

№	Texnik jarayonlar	Dastgoh markasi	Texnik parametrlar
1	Saralash va guruhlarga yig'ish	Qo'lda	
2	Purkash usulida ivitish	Stolda	T=45-55°C
3	Dam berish	Yashiklarda	T=22-24°C W=60-65% t=4 soat
4	Qayta o'rash	GDOO1A-145	v=180-200 m/min
5	Qushib eshish	GD-122	k=100 br/m v=70 m/min n _u =7000 min ⁻¹
6	Buramlarni muvozanatlash	MD-471	T=60-65°C t=20 min
7	Qayta o'rash	KO-51	v=350-400 m/min
8	Nazorat va saralash	Davlat Standarti bo'yicha	
9	Joylash va tamg'alash	Davlat Standarti bo'yicha	

2.5. Xom ashyoni saqlash va ombor hisobi

Tabiiy ipakdan eshilgan iplarni ishlab chiqarish uchun quyidagi chiziqli zichlikdagi xom ipaklar ishlatiladi: 1,56 teks, 1,89 teks, 2,33 teks, 3,23 teks, 4,65 teks va boshqalar.

Ipak eshish korxonasiga xom ipak 32 kg vaznda toylarga joylangan holda keltiriladi. Xom-ashyo stelajlar bilan jihozlangan omborlarda saqlanadi.

Omborda xom ipak havoni harorati 22-26°S va 60-65 % bo'lgan muhitda saqlanishi lozim.

Loyihalanayotgan ipak eshish korxonasi bir kunda 178 kg xom ipak ishlatilsa, bir kunlik zaxira uchun omborda 178x10=1780 kg ipakni saqlash lozim. Xom ipak pillakashlik korxonasiga toylar joylangan holda keltiriladi.

Toyni o'lchami 0,75 x 0,42 x 0,4 m

Toylarni soni 1780:32=56.

Toylarni stilajlarga joylanadi. Stilajni toyga ajratilgan joyni 0,8 x 0,5 x 0,5 m

Toylar stilajni uzunasiga 8, eniga 2 va balandligi 5 ta joylanadi. $8 \times 2 \times 4 = 64$ toy joylash mumkin.

Stilajni o'lchami:

Uzunligi $8 \times 0,8 = 6,4$ m

Eni $0,5 \times 2 = 1$ m

Balandligi $0,5 \times 4 = 2,0$

Stilaj yuzasi $6,4 \times 1 = 6,4$ m²

Ombor maydoni $6,4 \times 2 = 12,8$ m²

2.6. Xom ashyoni qabul qilish va guruhlarga yig'ish

Ipak pishitish korxonalariga keltirilgan xom-ashyo texnik xujjatlar o'tkaziladi.

Har bir guruhda quyidagi xujjatlar bo'ladi: faktura, guruh nomeri, kip nomeri, pakovka turi, konditsion og'irligi, faktura bo'yicha navi va xom ipak pasporti.

Hamma xom-ashyo tekshirishdan o'tadi, sifat ko'rsatkichi bo'yicha nuqsonli pakovka o'tkaziladi.

Bir guruhga kiradigan xom-ashyo rangi bir xil, bir xil chiziqli zichlikda, bir korxonadan olib kelingan I va II, II va III navlarni qo'shgan holda, fizik va mexanik xususiyatlari bir xil yoki bir biriga yaqin bo'lgan guruhlarni qo'shib yiriklashtiriladi.

2.7. Xom ipakni qayta o'rashga tayyorlash, xom ipakni ivitish

Xom ipakni qayta o'rashga tayyorlash quyidagi jarayonlardan iborat:

-Xom ipakni ivitish.

-Ivitishdan keyin siqish.

-Kalavani ilib qo'yish.

-Xom ipakni quritish.

Ipakni vannada ivitishga emulsiya tayyorlash.

Emulsiya retsepti.

-Sovun- 200g

-Gletsirin- 200g

Sovun – seritsinni yumshatadi.

Gletsirin – yumshoq ipakni mayinlashtiradi.

Ipakni vannada ivitish uchun 60 kg ipak uchun 30 litr suv ketadi. So'ngra 3,6 kg emulsiya eritmasini elakdan o'tkazib solinadi. Qizil rang uchun 64 gr bo'yoq ishlatiladi.

Ivitish rejimi:

Emulsiya harorati:

Yozda: $42 \pm 2^{\circ}\text{C}$

Qishda $45 \pm 2^{\circ}\text{C}$

Keyin 60 kg ipakni vannaga joylaymiz, ustini salfetka bilan yopiladi. 21 ± 1 soat turadi.

So'ngra uni 2 bog'lamdan salfetkalarga o'rab sentrafugada 3,5 siqiladi.

Loyihalanayotgan ipak eshish korxonasi kichik korxona bo'lganligi uchun 2 ta ivitish vannasi va bitta sentrafuga yetarli.

Sentrafuganing texnik tavsifnomasi: 930 ay/min. Elektrodvigatel quvvati 5,5 kv.

2.8. Xom ipakni qayta o'rash

Xom ipakni kalavadan g'altakka o'rashning maqsadi, keyingi qo'shib eshish, qavatli eshish dastgohlariga tayyorlab berish.

Xom ipak kalavada keladi.

Xom ipakni kalavadan 2 gardishli g'altakka o'raladi. Qayta o'rash vaqtida iplar nazorat qilinadi, tozalanadi, ipni nalyot tugunlardan va ingichka joylardan tozalanadi.

Loyihalanayotgan korxonada GDOO1A-145 qayta o'rash dastgohi o'rnatiladi.

Bu dastgoh ikki tomonli, ikki yarusli, gorizontal urchuq holatda. Bitta mashinada 100 ta g'altak bor. Charxdagi yuklarni og'irligi 100 gr. G'altakning og'irligi 300 gr.

GDOO1A-145 qayta o'rash dastgohining texnik tavsifi

1. Ikki tomonli, ikki yarusli gorizontal urchuq holatda
2. Urchuqning soni –100
3. Urchuq o'lchami –250 mm
4. Uzatish harakati-friksion
5. O'ramning chiziqli tezligi-80-200 m/min
6. Taxlagich harakati-70-150 mm
7. Diferensial harakati – ekssentrik, turi bir tomonli, tormozli, diferensial mexanizm.

8. G'altak o'lchamlari- $d=45$ $d=85$ $L=150$ mm

9. G'altakning maksimal og'irligi-500 gr

10. Ip o'tkazgichning materiali alyumin- keramika

Mashina o'lchamlari:

7820 mm x 1380 mm x 1800 mm

mashina eni 1210 mm

umumiy uzunligi $1400 \times 5 + 570 = 7630$ mm

2.9. Xom ipakni qo'shib eshish

Iplarni bir nechtasini qo'shib bir vaqtda eshish qo'shib eshish deyiladi.

Bu jarayondan maqsad bir necha pakovkadan chiqayotgan iplarni qo'shib va eshish rejasi bo'yicha iplarga buram berib bir pakovkaga o'rash.

Loyihalanayotgan korxonada GD-122 qo'shib eshish dastgohi o'rnatiladi.

Dastgoh ikki tomonli bir yarusli, xalqali.

GD-122 qo'shib eshish dastgohining vazifasi qayta o'rashda tayyorlangan g'altakni ikkitasini bir qilib boshqa g'altakka o'raydi.

Bitta mashinada 96 ta g'altak bor.

GD-122 qo'shib eshish dastgohining texnik tavsifi

1. Turi-halqali, aylanuvchan, ikki tomonli.
2. Urchuq o'lchami-140 mm
3. Urchuqlar soni-96 ta
4. Rolik diametri –70 mm
5. Halqa konus shaklida yog'langan. Halqa ZGHS-90 (ichki)
6. Eshish yo'nalishi –S va Z
7. Urchuq tezligi –2000-6000 min⁻¹
8. G'altak o'lchami-D=75x40x150 mm
9. Mashinaning o'lchamlari-7838x695x2020 mm, og'irligi-2,5t

2.10. Eshishni mustahkamlash

Eshilgan ipakdagi buramlarni mustahkamlash maqsadida iplarda hosil bo'ladigan ichki zo'riqishni yo'qotishdir.

Eshilgan ipakni qayta o'rashda hosil bo'ladigan chigallik va uni natijasida uzilishlarni yo'qotish va matoda hosil bo'ladigan nuqsonlarni kamaytiradi.

Buramni mustahkamlash vakuumli bug'lash apparatida bajariladi.

Tabiiy ipakni bug'ltishda bug'latish vaqti va harorati buramiga pakovkaning sig'imiga, ipning chiziqli zichligiga va bug'lash usuliga bog'liq.

Loyihalanayotgan ipak eshish korxonasida eshilgan ipakni mustahkamlash MD-471 vakuum bug'lash apparatida bajariladi.

Bu dastgohda eshilgan ipakka 90 min davomida mustahkamlash beriladi.

MD-471 vakuum bug'lash apparatining texnik tavsifi

1. Harorat-60 °C
2. Isitish vaqti (min)-30
3. Muvozanatlash vaqti 60-90-120 min
4. Haroratda 65-80°C
5. Bosim (MPa) 0,05-0,2
6. Namlik (%) 87±5

2.11. Eshilgan iplarni qayta o'rash

Eshilgan iplar chiqishini yengillashtirish uchun ya'ni eshilgan ipni tandalash dastgohiga berish uchun katta g'altakdan kichkina g'altakka qayta o'raladi.

Loyihalanayotgan korxonaga KO-51 qayta o'rash dastgohini o'rnatish mumkin.

KO-51 qayta o'rash dastgohining texnik tavsifi

1. O'ralish tezligi-(m/min) 100
2. Cho'zish kuchi, sN 16±5

3. G'altak o'lchami, (mm) D=60; 50
4. Asosiy valni tezligi, (m/min) 160±10
5. G'altak sig'imi, gr 120

2.12. Texnologik jarayonlar uchun parametrlar normativlarni asoslash

Tabiiy ipakdan eshilgan ipak ishlab chiqarishda iplarga buram berishda uni uzunligi qisqaradi. Ipakning qisqarishi uning zichligiga ta'sir qiladi. Eshilgan iplardagi qisqarish G.N.Kukin formulasi yordamida hisoblanadi. Bu formula quyidagicha:

$$U=I \cdot 100\%$$

bu yerda: I – qisqarish koeffitsiyenti.

$$I = 1 - \frac{1}{\sqrt{\left(\frac{2\pi Rk}{10^6}\right)^2 + 1}}$$

bu yerda: R-eshish radiusi

k-bir metr ga to'g'ri kelgan buramlar soni

Iplarni eshishdagi diametri esa quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$D=0,0357 \sqrt{\frac{T}{\delta}}$$

bu yerda: δ -1,1 g/sm² hajm og'irligi

T-hisobiy chiziqli zichlik.

Qayta o'rash dastgohidan so'ng hisobiy chiziqli zichlik quyidagicha topiladi:

$$T_h = \frac{T_n}{\left(1 - \frac{\alpha}{100}\right) \left(1 - \frac{\beta}{100}\right)}$$

bu yerda: T_n – nominal chiziqli zichlik

α -uzuqlar miqdori %

β - ivitishdan oshgan og'irlik , %

Eshilgan iplarning o'timlar bo'yicha uzuqlarning chiqishi quyidagi jadvalda keltirilgan.

7-jadval

№	O'timlar	Uzuqlarning chiqishi, %
1.	Qayta o'rash	0,3
2.	Qo'shib eshish	0,25
3.	Eshish	0,3
4.	Qayta o'rash	0,2

Loyihalanayotgan korxonada o'timlar bo'yicha uzuqlarni chiqishi quyidagicha

№	Oʻtimlarning nomlanishi	Uzuqlarning chiqishi %
1.	Qayta oʻrash	0,3
2.	Qoʻshib eshish	0,25
3.	Eshish	0,3
4.	Qayta oʻrash	0,2

1. Qoʻshib eshish dastgohidan soʻng hisobiy chiziqli zichlikni quyidagicha topiladi:

$$T_x^{11} = \frac{T_x^1 \cdot a}{\left(1 - \frac{y}{100}\right)} \text{ a-qoʻshilayotgan iplar soni}$$

Misol tariqasida eishilgan iplarning qisqarishini hisoblab chiqamiz.

$$U = I \cdot 100\%$$

$$I = 1 - \frac{1}{\sqrt{\left(\frac{2\pi R \cdot K}{10^6}\right)^2 + 1}} = 1 - \frac{1}{\sqrt{\left(\frac{2 \cdot 3,14 \cdot 26 \cdot 100}{10^6}\right)^2 + 1}} = 0,001$$

$$R = \frac{d}{2} \cdot 1000_{mm}$$

$$d_1 = 0,0357 \sqrt{\frac{T_x^1}{1,1}} = 0,0357 \sqrt{\frac{2,40}{1,1}} = 0,052 \text{ mm}$$

$$R = 26 \text{ mk}$$

$$U = I \cdot 100 = 0,001 \cdot 100 = 0,1 \%$$

$$T_x^{11} = \frac{T_x^1 \cdot 2}{\left(1 - \frac{y}{100}\right)} = \frac{2,40 \cdot 2}{\left(1 - \frac{0,1}{100}\right)} = \frac{4,80}{0,999} = 4,80$$

2. Eshish dastgohidan chiqqan ipakning chiziqli zichligi

$$T_x^{111} = \frac{T_x^{11}}{1 - \frac{y}{100}}$$

$$d_1 = 0,0357 \sqrt{\frac{T_x^{11}}{\delta}} = 0,0357 \sqrt{\frac{4,80}{1,1}} = 0,075$$

$$R = \frac{d_2}{2} \cdot 1000 = \frac{0,075}{2} \cdot 1000 = 37,5 \text{ мк}$$

$$I = 1 - \frac{1}{\sqrt{\left(\frac{2\pi R \cdot K}{10^6}\right)^2 + 1}} = 1 - \frac{1}{\sqrt{\left(\frac{2 \cdot 3,14 \cdot 37,5 \cdot 2400}{10^6}\right)^2 + 1}} = 0,13$$

$$U = I \cdot 100 = 0,13 \cdot 100 = 13\%$$

$$T_x^{111} = \frac{T_x^{11}}{\left(1 - \frac{\gamma}{100}\right)} = \frac{4,80}{\left(1 - \frac{13}{100}\right)} = \frac{4,80}{0,87} = 5,68$$

3. O'timlar bo'yicha pakovka vaznining hisobi

GDOO1A-145 qayta o'rash dastgohi misolida

G'altakning o'lchamlari:

Tashqi diametri D=11,2 sm

Ichki diametri d=7,7 sm

G'altak uzunligi L=14,5 sm

G'altakdagi ipakning miqdori

$$G = V \cdot \gamma$$

$$V = \frac{\pi L}{4} (D^2 - d^2) = \frac{3,14 \cdot 14,5}{4} (11,2^2 - 7,7^2) = 740 \text{ см}^3$$

$$\gamma = 0,5 \text{ g / см}^3$$

$$G = V \cdot \gamma = 740 \cdot 0,5 = 360 \text{ g}$$

GD-122 qo'shib eshish dastgohi

G'altakning o'lchamlari

Tashqi diametri D=11,0 sm

Ichki diametri d=7,7 sm

G'altak uzunligi L=1,5 sm

G'altakdagi ipakning miqdori

$$G = V \cdot \gamma$$

$$V = \frac{\pi L}{4} (D^2 - d^2) = \frac{3,14 \cdot 1,5}{4} (11^2 - 7,7^2) = 720 \text{ sm}^3$$

$$\gamma = 0,5 \text{ g / sm}^3$$

$$G = V \cdot \gamma = 720 \cdot 0,5 = 360 \text{ g}$$

$$G = 360 \text{ g}$$

GD-143-120 eshish dastgohi

G'altakning o'lchamlari

Tashqi diametri D=10,8 sm

Ichki diametri d=6,3 sm

G'altak uzunligi L=12 sm

G'altakdagi ipakning miqdori

$$\gamma = 0,5 \text{ g/sm}^3$$

G'altakdagi ipak miqdori.

$$G = V \cdot \gamma$$

$$V = \frac{\pi L}{4} (D^2 - d^2) = \frac{3,14 \cdot 12}{4} (10,8^2 - 6,3^2) = 720 \text{ sm}^3$$

G'altakdagi ipak miqdori.

$$G = V \cdot \gamma = 720 \cdot 0,5 = 360 \text{ g.}$$

2.13. Dastgohlarning meyorlash kartasi

GDOO1A-145 qayta o'rash dastgohi uchun.

$$T_x^{11} = 2,40 \text{ teks}$$

$$G_{\text{kir}} = 120 \text{ g}$$

$$G_{\text{chiq}} = 360 \text{ g}$$

$$L_n = (G_{\text{chiq}} \cdot 1000) : T_x^1 = (360 \cdot 1000) : 2,40 = 150000$$

$$V = 180 \text{ m/min}$$

1. Nazariy ish unumdorligi

